

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD. 05/2025.27.12. Tar.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

SHODMONOV XAKIMJON XAMDAMOVICH

**YOSHLARNING MA’NAVIY-ESTETIK DUNYOQARASHINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MUZEYLARNING AHAMIYATI**

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta’irlash va saqlash

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation

Shodmonov Hakimjon Xamdamovich

Yoshlarning ma’naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda muzeylarning ahamiyati 3

Шодмонов Хакимджон Хамдамович

Значение музеев в совершенствовании духовно-эстетического мировоззрения молодежи 25

Shodmonov Khakimjon Khamdamovich

The Importance of Museums in the improvement of spiritual-aesthetical worldviews in youth 49

E’lon qilingan ishlar ro’uxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI HUZURIDAGI TARIX
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD. 05/2025.27.12. Tar.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

SHODMONOV XAKIMJON XAMDAMOVICH

**YOSHLARNING MA’NAVIY-ESTETIK DUNYOQARASHINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MUZEYLARNING AHAMIYATI**

17.00.06 – Muzeyshunoslik. Tarixiy madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,
ta’irlash va saqlash

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Tar2093 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston tarixi davlat muzeyining veb-sahifasida (<https://history-museum.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzoraximov Abbosjon Shodmonovich
tarix fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Ismailov Alisher Fayziyevich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Akbar Abdullayevich
san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD. 05/2025.27.12. Tar.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "12" 06 soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kichik majlislar zali. Tel.: (99871) 239-10-83; faks: (99871) 239-10-83, e-mail: uzb.historymuseum@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston tarixi davlat muzeyining kutubxonasida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100029, Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 3-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "03" 06 kuni tarqatildi.
(2026 yil "03" 06 dagi 21 - raqamli reyestr bayonnomasi).



J.X. Ismailova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

T.X. Norkobilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

B.V. Xasanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadal kechayotgan sharoitda yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy madaniy meros, tarixiy qadriyatlar va estetik tafakkurni anglash orqali yosh avlodda yuksak ma'naviyatni qaror toptirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Muzeylar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va estetik qadriyatlarini mujassam etuvchi muhim madaniy-ma'rifiy muassasa sifatida yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. Muzey ekspozitsiyalari orqali yoshlar milliy va jahon madaniyati namunalari bilan bevosita tanishib, tarixiy tafakkur, estetik idrok va madaniy merosga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, muzeylarning yoshlar ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning tarbiyaviy salohiyatini pedagogik asoslarda tahlil qilish hamda samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda muzeylarning o'rni va ahamiyatini yoritish bilan bog'liq masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda muzey pedagogikasi, madaniy meros targ'iboti, muzeylarni shakllantirish va ekspozitsiyalarini boyitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati singari masalalar o'rganilmoqda. Shu jihatdan, tadqiqotlarda olingan natijalar muzeylarning yoshlarda estetik dunyoqarashni takomillashtirishdagi ahamiyati yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

So'nggi yillarda yurtimizda yosh avlodni ma'naviy va estetik jihatdan yetuk insonlar etib tarbiyalashda muzeylar salohiyatidan oqilona foydalanish, muzey pedagogikasini rivojlantirish, madaniy-ma'rifiy faoliyatini kuchaytirish, yoshlar uchun tarix va madaniyatni yanada yaqinlashtirish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda 2030-yilgacha mo'ljallangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" va "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" kabi ustuvor yo'nalishlarida aynan yoshlarning bilim, tafakkur va dunyoqarashini boyitishga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan¹. Bu strategik yondashuvlar doirasida madaniy merosni asrash, uni o'rganish va targ'ib qilish orqali yoshlarning o'z tarixiga bo'lgan hurmatini shakllantirish, milliy g'urur va estetik didini yuksaltirish kabi vazifalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 12-sentyabrda qabul qilingan O'R Q-177-son "Muzeylar to'g'risida"gi Qonuni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son "2017-2021-yillarda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.09.2008-yildagi O'RQ-177-son // <https://lex.uz/docs/-1391728>

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-son “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy tadqiqot mavzusiga oid davriy nashrlar, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, ularni ikkita guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi guruhni O‘zbekistonda mustaqillik yillarida muzeyshunoslik sohasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar³, davriy matbuot materiallar hamda xorijiy olimlarning muzeyshunoslikka oid ilmiy ishlari tashkil etadi. Xususan, J.X.Ismailova, D.T.Kuryazova, R.V.Almeyev, D.A.Qurbonova, M.S.Muxamedova, G.R.Orifjonovalarning ishlarida⁴ O‘zbekiston muzeylarining rivojlanish bosqichlari, mustaqillikdan keyingi yangilanish jarayonlari, muzeylarning ijtimoiy-madaniy va ilmiy ahamiyati, shuningdek, ularning turizm va innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilingan.

A.F.Ismailovning “O‘zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari”⁵ nomli doktorlik dissertatsiyasida fan

³ Курбонова Д. Хориж музейларида сақланаётган Темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар. Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 30 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида). Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 30 б.; Альмеев Р.Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг.). Автореф. дисс. ... д-ра. историч. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.

⁴ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари фаолияти мисолида). Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Курязова Д.Т. Музей иши асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 180 б.; Алмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000 гг.). Автореф. дисс. ... д-ра историч. наук. – Ташкент, 2012. – С. 50; Muxamedova M.S.O‘zbekistonda muzey turizmining rivojlanishi (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). Tarix fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 74 б.; Курбонова Д. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекташ тамойиллари. Тарих фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 74 б.; Orifjonova G. O‘zbekiston muzeylarining innovatsion tajribasi (XX asr oxiri – XXI asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 332 b.

⁵ Ismailov A. O‘zbekistonning intellektual rivoji tarixi va fan muzeylarini shakllantirish tendensiyalari (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi misolida). Tarix fan. d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 70 b.

muzeylarini shakllantirish, ilmiy merosni ekspozitsiyalash tendensiyalari tahlil etilgan.

J.Z.Axmedov, V.S.Fayziyeva, S.B.Boymirzayev, M.A.Yunusov, N.A. Axmedjonovlarning tadqiqotlarida⁶ muzeylar orqali milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, Sh.A.Miraliyeva, R.K.Atamuratov, B.X.Xodjayev, K.I.Marayimovalar tomonidan pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilgan⁷. Xususan, Sh.A.Miraliyeva va R.K.Atamuratovlar virtual muzeylar yaratishning o'quv-tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rgangan bo'lsa, I.S.Ibodov O'zbekistonda muzey pedagogikasining shakllanishi va rivojlanish tamoyillarini tizimli tahlil etgan.

Ikkinchi guruhni AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya va MDH davlatlarida – K.Yamamoto⁸, H.Becker⁹, M.Yuxnevich¹⁰, B.A.Stolyarov¹¹, psixologlar O.Platonova¹², L.Lebedeva¹³ kabi nazariyotchilar o'z tadqiqotlarida muzeylarga e'tiborni jalb qildi. N.N.Zasleva¹⁴, Yu.A.Somova¹⁵, G.Sh.Fayzullina¹⁶, O.V.Chensova¹⁷, M.G.Xugaeva¹⁸, O.V.Sidorova¹⁹, I.V.Mishina²⁰ kabilarning

⁶ Орифжонова Г. Р. XIX-XX аср бошларига оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намоиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари. Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.; Ахмедов Ж.З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий дгориқларни музейлаштириш (XIX-XXI асрлар). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.; Файзиёва В.С. Ўзбекистон давлат санъат музейи: тарихи, ривож ва истикболи (XX-XXI асрлар). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 52 б.; Boymirzayev S.B. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2023. – 49 б.; Yunusov M.A. Samarqandda muzey ishi: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va muzeylashtirish tamoyillari. Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Toshkent. 2023. – 52 б.; Axmedjonov N.A. O'zbekistonda XX asr o'rtalari va XXI asr boshlarida madaniy meros obektlari va muzeylar tarixi (Jizzax viloyati misolida). Тарих фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2023. – 54 б.

⁷ Миралиева Ш.А. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истикболлари. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2019. – 54 б.; Атамуратов Р.К. Виртуал-таълимий музей яратиш технологияси. Пед. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Чирчик, 2022. – 46 б.; Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш. Пед. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 82 б.

⁸ Yamamoto K. Education and Museum Collaboration in Japan. – Tokyo: National Museum Press, 2018.

⁹ Becker H.C. Museumspädagogik heute. – Berlin: Museum-Verlag. 2012. – P. 146.

¹⁰ Юхневич М.Ю. Я поведу тебя в музей: учеб. пособие по музейной педагогике. – М., 2001. – 223 с.

¹¹ Столяров Б.А. Художественный музей и эстетическое воспитание молодежи. – Л., 1988. – 260 с.

¹² Платонова О.В., Жвитиашвили Н.Ю. Арт-терапия в художественном музее. Учеб.пособие для студентов гуманитарно-художественных вузов. – СПб., 2000. – 178 с.; Лебедева Л.Д. Педагогические основы арт-терапии в образовании. – СПб., 2001. – 258 с.

¹³ Платонова О.В., Жвитиашвили Н.Ю. Арт-терапия в художественном музее. Учеб. пособие для студентов гуманитарно – художественных вузов. – СПб., 2000. – 178 с.; Лебедева Л.Д. Педагогические основы арт-терапии в образовании. – СПб., 2001. – 258 с.

¹⁴ Заслева Н.Н. Информационное обеспечение музейной экспозиции (на примере Государственного исторического музея). Автореф. дисс. ... канд. культурол. – Санкт Петербург, 2008. – 23 с.

¹⁵ Сомова Ю.А. Культурно-образовательная деятельность детских музейных центров музеев исторического профиля Сибири на современном этапе. Автореф. дисс. ... канд. историч. наук. – Томск, 2019. – С. 24.

¹⁶ Файзуллина Г.Ш. Культурно-образовательная деятельность музеев Казахстана в период независимости (1991-2005 гг.). Автореф. дисс. ... канд. историч. наук. – Москва, 2005. – С. 28.

¹⁷ Ченцова О.В. Музей как современный ресурс вузовской образовательной среды. Автореф. дисс. ... канд. культурол. наук. – Краснодар, 2020. – С. 22.

¹⁸ Хугаева М.Г. Образовательная деятельность исторических музеев России. Автореф. дисс. ... канд. культурол. наук. – Санкт Петербург, 2008. – С. 24.

¹⁹ Сидорова О.В. Работа с семейной аудиторией в музеях Сибири в конце XX – начале XXI века. Автореф. дисс. ... канд. историч. наук. – Томск, 2012. – С. 28.

²⁰ Мишина И.В. Музей в системе ценностных ориентаций российского студенчества. Автореф. дисс. ... канд. культурол. наук. – Санкт Петербург, 2002. – С. 23.

tadqiqot ishlarida muzeylarning yoshlarni tarbiyalash faoliyati tarix, madaniyatshunoslik ixtisosliklari yo‘nalishida tadqiq etilgan.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda muzeylarning tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida qator ilmiy ishlar yaratilgan bo‘lsa-da, muzeylarning yoshlar ma‘naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni va mexanizmlarini maxsus, kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar hali to‘liq amalga oshirilmagan, shu boisdan, mazkur tadqiqot ishi mavjud ilmiy izlanishlarni mantiqan davom ettirib, muzeylarning ta‘lim-tarbiyaviy, estetik va ma‘naviy-ma‘rifiy imkoniyatlarini tizimli asosda o‘rganishga qaratilganligi bilan dolzarbdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining “Yoshlarni ma‘naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda muzeylarning ahamiyati” mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan hozirgi kunga qadar muzeylarning tarbiyaviy va ma‘rifiy salohiyatini ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganish hamda yoshlarning ma‘naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya masalalarining ilmiy-nazariy va me‘yoriy asoslarini yoritib berish;

Ma‘naviy-estetik tarbiyaning mohiyati, maqsadi va yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rnini ochib berish;

1991-yildan hozirgi kunga qadar muzeylarning yoshlarni ma‘naviy-estetik tarbiyalashda tutgan o‘rni va yoshlarni muzey faoliyatiga jalb qilish imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish;

O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda yoshlar bilan muzeylar orqali ishlash tajribalari hamda rivojlanish yo‘nalishlarini yoritib berish;

Muzeylardagi ko‘rgazma va loyihalarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda ta‘sirchanligini ochib berish;

Ta‘lim muassasalari va muzeylar hamkorligi: mavjud muammolarni aniqlash hamda taklif etilayotgan yechimlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda mustaqillikka erishgandan keyingi davrda (1991-yildan hozirgi kungacha) yoshlarning ma‘naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirish jarayonida muzeylarning ijtimoiy-madaniy institut sifatidagi faoliyati tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini yoshlarning ma‘naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirish tamoyillari aks etgan muzey eksponatlarining shakllanish tarixi, muzey kolleksiyalari, ekspozitsiyalardagi namoyishi, ma‘rifiy ahamiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada izchillik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muzeylar faoliyatida yoshlarning ma‘naviy-estetik dunyoqarashini

takomillashtirish vazifalari uch bosqichda (1. 1991-2010-yillar, institutsional va huquqiy asoslari shakllantirilgan, muzeylarning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatida yoshlar bilan ishlash yo'nalishlari belgilangan; 2. 2011-2016-yillar, innovatsiyalar, 3D texnologiyalar, elektron gidlar joriy etilgan, interaktiv muhit yaratilgan; 3. 2017-2025-yillar, muzeylar ijtimoiy institutga aylanib, yangi ekspozitsiyalar, xalqaro hamkorlik va ilmiy kengashlar tashkil etilgan, muzeylarning madaniy diplomatiya va ma'naviy tarbiya markazi sifatidagi roli kuchaygan) amalga oshirilganligi dalillangan;

yoshlarning idrok xususiyatlari, qiziqish doirasi va tafakkur rivojlanish darajasiga mos ekspozitsiyalarni shakllantirish, ekskursiyalarni ta'limiy maqsadlarga yo'naltirish, pedagogik salohiyatga ega muzey ekskursovodlarini, ya'ni muzey pedagoglarini tayyorlash zarurati yosh tashrifchilarning talab va qiziqishlariga moslashtirish yo'lida yangi interaktiv hamda immersiv ekspozitsiyalar, ta'limiy-integrativ ekskursiyalarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirganligi asoslangan;

yoshlarni muzeylarga jalb etish jarayonida ularni yosh toifalariga ko'ra guruhlash (7-11 yoshda vizual-emotsional idrok ustunlik qiladi; 11-14 yoshda tahliliy fikrlash elementlarining shakllanadi; 14-18 yoshda mustaqil va tanqidiy tahlil qobiliyatining rivojlanadi) muzeyni faqat tomosha joyi emas, balki faol bilim olish muhitiga aylanishi, jumladan, madaniy merosni anglash va uni qadrlash, shuningdek globallashtirish sharoitida g'oyaviy barqarorlikni ta'minlovchi strategik omil ekanligi aniqlangan;

yoshlar orasida muzeylarga nisbatan qiziqish mavjud bo'lsa-da, tashriflar soni kamligi muzeylar faoliyatiga doir axborotlarning yetishmasligi, ekspozitsiyalarning yetarlicha jozibador emasligi hamda muzey infratuzilmasi va xizmatlar sifatidagi kamchiliklar bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining shartnomalariga asosan "Respublika muzeylarida "Virtual muzey" dasturini joriy etish masalalari" nomli davlat ijtimoiy loyihasi yaratishda foydalanilgan.

Yosh avlodda milliy va jahon madaniy merosini chuqur anglash, estetik didini shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladigan asarlar ro'yxatining shakllantirilishi orqali Respublika va hududiy muzeylar fondlarida saqlanayotgan turli tarixiy, madaniy va badiiy asarlar, kolleksiya va ekspozitsiyalar, tarbiyaviy, estetik va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan namunalar yaratishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tarix fanidagi samarali yondashuv va usullarning qo'llanilgani, muzey va arxiv fondlarida saqlanayotgan arxiv hujjatlari, tarixiy ilmiy adabiyotlardan foydalanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning tegishli vakolatga ega tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosa va natijalarni asoslashda tarixiy hamda qiyosiy

yondashuvlarni qo'llagan holda yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda muzeylar ahamiyatining rivojlanishiga oid tarixiy jarayonlar tizimli tahlil asosida yoritilgani bois ulardan mazkur muammoga oid nazariy xulosalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ushbu natijalar oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida muzeyshunos, tarix mutaxassisliklari uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi, shuningdek, ulardan "Muzeyshunoslik", "O'zbekistonda muzey ishi tarixi" kabi mutaxassislik fanlarini o'qitishda va ular bo'yicha yangi darslik, o'quv qo'llanma hamda o'quv kurslar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda muzeylarning ahamiyati bo'yicha tadqiqot olib borish davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

Yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muzeylar faoliyatining huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllanganligi, jumladan, 1991-2010-yillarda tashkiliy-huquqiy baza yaratilib, muzeylarning tarbiyaviy funksiyasi va yoshlar bilan ishlash yo'nalishlari, 2017-2019-yillarda innovatsiyalar, 3D texnologiyalar va elektron gidlar joriy etilib, interaktiv muhit; 2020-yildan muzeylar ijtimoiy institut sifatida rivojlanib, yangi ekspozitsiyalar, xalqaro hamkorlikning rivojlanishi; Ma'naviy-estetik tarbiya yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda tarixiy-madaniy taraqqiyot, qadriyatlar va badiiy meros; muzeylar asosida estetik tarbiyaning integratsion modeli ishlab chiqarilishi, raqamli madaniyatning estetik idrokka ta'siri va texnologik qaramlikning salbiy jihatlari; muzeylarning milliy xotirani shakllantiruvchi tarbiyaviy institut sifatida talqin etilishi, "Avesto" va qadimiy an'analar asosida milliy o'zlikni mustahkamlash hamda globallashuv sharoitida estetik tarbiya va yoshlar siyosati uyg'unligiga oid materiallardan "Virtual muzey" dasturini joriy etish masalalari nomli davlat ijtimoiy loyihasi yaratishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 9-sentyabrdagi 01-33/671-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha respublika muzeylarida ko'rgazmalarning vizual jihatdan ta'sirchanligini oshirish, muzeyga tashrif buyuruvchilarning estetik dunyoqarashini oshirishga xizmat qilgan;

Yoshlar tarbiyasi bo'yicha O'zbekiston va dunyoning ilg'or muzeylari tajribasi taqqoslanganda, AQShdagi Smithsonian Institution amaliy va texnologik "Hands-On Learning" dasturi, British Museumning "Young Explorers" interaktiv ekskursiyalari, Luvr muzeyining bolalar uchun raqamli va virtual loyihalari, Deutsches Museumning "Kinderreich" sensor-ta'lim muhiti, Janubiy Koreya va Yangi Zelandiya muzeylarida 3D, QR-kod va virtual ilovalarning qo'llanilishi, Rijksmuseumning "Junior Lab" dasturida kreativ texnologiyalar integratsiyasi, Tokio Milliy muzeyida milliy qadriyatlarni targ'ib etish hamda Ermitajda madaniyatni amaliy anglashga yo'naltirilgan dasturlar; O'zbekistonda muzeylar bilan hamkorlikda qishloq maktablari uchun infratuzilmaviy cheklovlar, kadrlar malakasining pastligi, moliyaviy resurslar yetishmasligi, muzey-ta'lim integratsiyasining sustligi hamda raqamli texnologiyalarning kamligi muammo sifatida ko'rsatildi. Ularni bartaraf etish uchun milliy konsepsiya ishlab chiqish,

“muzey pedagogikasi” bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, sayyor va onlayn muzeylarni rivojlantirish, maktab muzeylarini tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha tavsiyalardan hozirgi kunda bir qator umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida, ixtisoslashgan san’at maktablarida namoyish etib kelinmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 25-apreldagi 01-05/1593-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha yoshlarning muzey madaniyatiga qiziqishini oshirish, ularni milliy qadriyatlar va san’atga hurmat ruhida tarbiyalashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (ulardan 6 tasi respublika va 3 tasi chet el jurnallarida) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, o‘rganilish darajasi tavsiflangan, ishning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston yoshlariga oid davlat siyosati va ma’naviy-estetik tarbiyaning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalalarining ilmiy-nazariy va me’yoriy asoslari hamda ma’naviy-estetik tarbiyaning mohiyati, maqsadi va yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rnining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

O‘zbekistonda 1991-2010-yillarda muzeylarning me’yoriy-huquqiy asoslari shakllantirildi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Biroq muzeylarni ilmiy maskan sifatida rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligi ma’lum. Keyingi davrda, ya’ni 2017-yil 25-dekabrda Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida o‘tgan yig‘ilishda ²¹ muzey sohasini isloh qilish bo‘yicha muhim vazifalar belgilandi.

Muzeylarga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-sonli qaror qabul qilindi²². Ushbu qarorni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu hujjat muzeylar sohasida tizimli islohotlarni boshlab bergan konseptual hujjat sifatida ahamiyat kasb etadi. Qaror quyidagi obyektiv sabablar natijasida

²¹ Prezident madaniyat va san’at sohasi rahbarlari bilan yig‘ilish o‘tkazdi // <https://president.uz/oz/lists/view/1378>

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>

qabul qilindi deb hisoblaymiz. Moddiy-texnika bazasining yetishmasligi: ko‘plab muzey binolari eski, eksponatlarni saqlash sharoiti xalqaro standartlarga javob bermas, zamonaviy ekspozitsiya vositalari deyarli qo‘llanilmas edi. Ijtimoiy talablar: Jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida tarixiy xotira, milliy merosga qiziqishni oshirish zarurati kuchaygan edi. Muzeylar esa bu vazifani bajara oladigan asosiy institut hisoblanadi. Qarorda muzeylar faoliyatini takomillashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda belgilangan:

Muzeylarning institutsional maqomini oshirish, ya’ni ilmiy tadqiqotlar olib borish, ekspozitsiyalarni ilmiy konsepsiya asosida yaratish, ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish vazifalarini zimmasiga oldi.

Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash: muzey binolarini rekonstruksiya qilish, eksponatlarni saqlash uchun zamonaviy laboratoriyalar yaratish, iqlim nazorati, xavfsizlik tizimlarini joriy etish belgilangan.

Qarorning ilmiy-metodologik ahamiyati. Temuriylar tarixi davlat muzeyida qarordan keyin ekspozitsiya to‘liq yangilandi, tarixiy jarayonlar vizual va interaktiv shaklda berildi, muzey ta’lim dasturlari ishlab chiqildi²³.

I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq san’at muzeyi qaror asosida:

- xalqaro hamkorlik kengaydi;
- muzey jahon muzeylar tarmog‘iga kirib bordi;
- ilmiy kataloglash ishlari kuchaytirildi. Bu muzeyning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qildi²⁴.

Qarorning ijtimoiy va iqtisodiy samarasi: muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni oshdi, ichki va tashqi turizm yanada rivojlandi, muzeylar atrofida xizmat ko‘rsatish sohalari shakllandi. Qaror O‘zbekistonda muzeylar sohasini modernizatsiya qilishda burilish nuqtasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-sonli²⁵ qaroriga asosan muzeylarning moddiy-texnik bazasini yangilash, eksponatlarni saqlash, restavratsiya va kataloglashtirish tizimini takomillashtirish, zamonaviy ekspozitsiya hamda interaktiv taqdimotlar yaratish va muzey sohasida malakali kadrlar tayyorlash asosiy yo‘nalishlar etib belgilandi²⁶.

2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan PQ-4038-sonli “Milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi” muzeylar faoliyatiga yangicha yondashuv olib keldi. Unga ko‘ra, muzeylar milliy madaniyatni yosh avlod ongiga yetkazuvchi tarbiya vositasi sifatida ko‘rilmoqda²⁷.

²³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>

²⁴ O‘sha joyda.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-3451889>

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son Qarori // <https://lex.uz/docs/3451889>

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy

2019-yil 19-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1019-sonli Qarori muzeylar faoliyatini modernizatsiya qilishga xizmat qildi²⁸. Muzey ekspozitsiyalari raqamlashtirildi va onlayn ko'rish imkoniyatlari kengaytirildi²⁹. "Moziyga sayohat" dasturi asosida maktab o'quvchilari, talabalar, nogironligi bor shaxslarning muzeylarga tashriflari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"dagi fuqarolar davlat muzeylariga bepul kirish huquqiga ega bo'lishdi³⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi 6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni hamda ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan:

- Madaniyat va san'at muassasalari – teatrlar, muzeylar, madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar shtatlari qayta ko'rib chiqildi, ularning boshqaruv, ijodiy va xizmat ko'rsatish bo'limlari takomillashtirildi;

- xodimlarga mehnat to'lovi, ularning staji, toifasi va ilmiy darajasiga ko'ra differensial tizim joriy etish;

- ya'ni tajriba va malaka asosida rag'batlantirish tizimi;

- madaniy meros, moddiy va nomoddiy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish, muzeylar infratuzilmasini mustahkamlash, zamonaviy restavratsiya va saqlash laboratoriyalarini tashkil etish belgilandi³¹.

2022-yil 27-maydagi PQ-261-sonli "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakat muzeylarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, muzeylarning marketing siyosati va xizmatlar sohasini zamonaviy talablarga moslashtirish, muzeylarning madaniy-tarixiy boy merosini keng targ'ib qilishga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, yangi ekspozitsiyalar – xalq tarixi, davlatchilik, o'zbek xalqi tarixi, "Birinci va Ikkinchi Renessans" davrlari, buyuk olimlar va ijodkorlar hayotiga oid ekspozitsiyalar yaratilishi ko'zda tutilgan. Muzeylarda xizmatlar (servis) ko'lamini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalar, marketing, suvenir do'konlari, master-klasslari, "onlayn-magazinlar" va hokazolarni joriy qilish jarayonlari ilgari surilgan³².

Shu o'rinda muzeylarni rivojlantirishning tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- Ta'limiylik tamoyili;
- Ma'naviy-tarbiyaviy yo'naltirilganlik tamoyili;
- Innovatsionlik va zamonaviylik tamoyili;
- Tarixiylik va vorislik tamoyili;

madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori // <https://lex.uz/docs/-4084926>

²⁸ 2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida muzeylar faoliyatini takomillashtirish dasturini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-dekabrda 1019-sonli Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-4654077>

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/ru/docs>

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4829149>

³² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>

- Integrativ yondashuv tamoyili;
- Estetik idrokni faollashtirish tamoyili.

Dunyo tajribasida muzeylar yoshlar bilan ishlashda quyidagi standartlarga amal qiladi, jumladan:

*Participatory Museum Model*³³: Yoshlarni faqat tomoshabin emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qilish modeli bo‘lib, muzeylarni tashrif buyuruvchilarga interaktiv ta’lim muhiti sifatida namoyon etadi.

*Lifelong Learning konsepsiyasi*³⁴: Muzeylarni uzluksiz ta’lim makoni sifatida tashkil etish modeli bo‘lib, muzeylar norasmiy ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida butun hayot davomida bilim berish g‘oyasini targ‘ib qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi.

*Digital & Inclusive Access*³⁵: Raqamli texnologiyalar va inklyuziv yondashuv orqali barcha yosh guruhlarini qamrab olish modeli bo‘lib, muzey xizmatlari barcha yosh va ijtimoiy guruhlar uchun ochiqligini ta’minlashga qaratilgan. Bu standartlar muzey pedagogikasini an’anaviy ekskursiya formatidan interaktiv ta’lim modeliga o‘tkazishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlashga doir siyosiy strategiyalar, jumladan, “mahallabay” yondashuv, “Yoshlar daftari”, “Yangi O‘zbekiston yoshlari tashabbuslari” jamg‘armasi – yoshlarning nafaqat iqtisodiy, balki estetik-ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Estetik tarbiya orqali yoshlar nafaqat san’atni anglaydi, balki bu orqali o‘z “men”ini kashf etadi, jamiyatdagi o‘rnini idrok etadi. Go‘zallik, mehnat, bilim va muhabbat fenomenlari orqali shaxsiy o‘sinh va ijtimoiy integratsiya yuz beradi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik, taraqqiyot va milliy yuksalish uchun zamin yaratadi.

1990-yillardan boshlab muzeylar faoliyatini rivojlantirishga oid bir qator qarorlar qabul qilindi. 1994-yilda muzey eksponatlarini asrash va targ‘ib qilish tartibga solindi. 1998-yildagi Prezident farmoni bilan muzeylarning ta’limiy-tarbiyaviy faoliyati kuchaytirildi. 2008-2010-yillarda huquqiy asoslar takomillash-tirildi, raqamlashtirish va fondlarni tizimlashtirish ishlari boshlandi. Natijada, muzeylar O‘zbekistonning muhim madaniy-ma’rifiy markazlariga aylandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Muzeylarning ma’naviy-estetik tarbiyadagi o‘rni va yoshlar bilan ishlash tajribalari”** deb nomlanib, unda muzeylarning ma’naviy-estetik tarbiyada tutgan o‘rni, yoshlarni muzeylarga jalb etish imkoniyatlari, shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda muzeylar faoliyatining modernizatsiya qilinishi va yoshlar bilan interaktiv ishlash tajribalari atroflicha tahlil etilgan. Muzeylarning ma’naviy-estetik tarbiyadagi o‘rni va madaniy merosga asoslangan tarbiya, umuman muzey orqali yoshlarga tarbiya berishga e’tibor qaratilgan.

Madaniy merosga asoslangan tarbiya – bu ta’lim-tarbiya jarayonida xalqning tarixiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy merosini pedagogik resurs sifatida qo‘llash orqali yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, ma’naviy immunitet va

³³ Simon, N. The Participatory Museum. – Santa Cruz, CA: Museum 2., 2010.

³⁴ UNESCO Lifelong Learning: From Policy to Practice. – Hamburg: UNESCO Institute for Lifelong Learning, 2015.

³⁵ ICOM Code of Ethics for Museums. – Paris: International Council of Museums, 2017.

ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan tizimli pedagogik jarayondir. Madaniy merosga asoslangan tarbiyaning asosiy maqsadi: yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida hamda tarixiy merosni asrash va anglash, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Shu o'rinda Sharq mutafakkirlarining tarbiya haqidagi qarashlariga e'tibor qaratsak: Abu Nasr Forobiy (873-950) tarbiya komil insonni shakllantirish vositasi qarab, uning ta'limotida: tarbiya axloqiy fazilatlar bilan intellektual kamolotning uyg'unligiga asoslanadi; jamiyat taraqqiyoti shaxs tarbiyasi bilan bevosita bog'liq; ma'naviy meros (axloq, fazilat, odob) tarbiyaning asosiy mazmuni hisoblanadi deb ta'kidlaydi³⁶.

Imom G'azzoliy (1058-1111) tarbiyani inson qalbini poklash jarayoni deb ta'riflaydi. Tarbiyaning markazida axloq turadi; milliy-meros axloqiy tarbiyaning asosiy manbaidir; ilm tarbiya bilan uyg'un bo'lmasa, komil inson vujudga kelmaydi deb ta'kidlaydi³⁷. Shuningdek, jadid bobolarimizning tarbiya haqidagi ilmiy-ma'rifiy qarashlariga to'xtalib o'tsak. Jadidlar tarbiyani milliy uyg'unish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili deb bildilar³⁸. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) – ta'limotiga ko'ra: tarbiya millat taqdirini hal qiluvchi omil; tarix, adabiyot va milliy qadriyatlar tarbiya mazmunining o'zagidir; maktab milliy madaniy merosni uzatuvchi asosiy institut hisoblanadi³⁹.

Abdulla Avloniy (1878-1934) tarbiya to'g'risida – “hayot yo mamot masalasi”; axloq, vatanparvarlik, milliy g'urur madaniy meros asosida shakllanadi; xalq og'zaki ijodi, adabiyot va tarix tarbiyaning muhim manbalaridir deb ta'kidlagan⁴⁰. Madaniy merosga asoslangan tarbiya – bu ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy, axloqiy, ilmiy-falsafiy va estetik qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga uzviy tatbiq etish orqali shaxsni kamol toptirishga qaratilgan pedagogik tizimdir. Sharq mutafakkirlari va jadid bobolarimiz qarashlarini ilmiy jihatdan umumlashtirganda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: tarbiya shaxs kamolotining markaziy omilidir. Madaniy meros tarbiyaning mazmuniy asosini tashkil etadi. Axloqiy, aqliy va ijtimoiy tarbiya o'zaro uzviy bog'liq. Milliy qadriyatlarga tayanilgan tarbiya jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlaydi.

Xususan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi 1876-yilda tashkil etilgan bo'lib, u yurtimizning bebaho tarixiy merosini o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishda muhim o'rin tutadi⁴¹. Ushbu muassasa o'z faoliyati davomida nafaqat noyob eksponatlarni jamlagan, balki tarixiy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishda ham katta xizmat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda ilk bor 2011-yilning avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida “Mo'jizalar olamida” nomli bolalar muzeyi tashkil etildi. Mazkur bolalar muzeyi 4 yoshdan

³⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – 159 b.

³⁷ Imom G'azzoliniyning Ey farzand kitobi. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.

³⁸ Алимова Д.А. Жадидчилик феномени. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 272 б.

³⁹ Алимова Д.А. Махмудхўжа Бехбудий. Миллат эҳтиёжига бахшида умр (қайта ишланган иккинчи нашр). – Тошкент: Zamin Nashr, 2025. – 104 б.

⁴⁰ Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Turon zamin, 2022. – 96 b.

⁴¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_tarixi_davlat_muzeyi

14 yoshgacha bo‘lgan barcha bolalarga mo‘ljallangan⁴². Muzey yosh avlodni tarix, madaniyat va ilm-fan olamiga qiziqtirish, ularni yangi bilimlar sari rag‘batlantirish maqsadida faoliyat yuritadi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan Imom al-Buxoriy majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida ham zamonaviy bolalar muzeylarini tashkil etish vazifasi belgilangan. Ushbu tashabbus yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash, ularni ajdodlarimizning ilmiy merosi, islom madaniyati va milliy qadriyatlar bilan yanada chuqurroq tanishtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Milliy muzeyi Toshkent shahrida barpo etilayotgan yirik ilmiy-madaniy markaz sifatida alohida ahamiyatga ega. 2025-yil 27-avgust kuni Prezident Sh.Mirziyoyev ushbu muzey qurilishiga asos soldi⁴³. Milliy muzey O‘zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosini keng ko‘lamda namoyish etadigan zamonaviy majmua bo‘lib, unda nafaqat tarixiy eksponatlar, balki ilmiy, ma‘rifiy va ko‘rgazmaviy faoliyatlar uchun zamonaviy sharoitlar yaratilishi rejalashtirilgan. Loyihaning konsepsiyasi Yaponiyaning mashhur me‘mori Tadao Ando va Germaniya mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Yosh avlodni muzeylarga keng jalb qilish maqsadida bir qator imtiyozlar joriy etilgan. Xususan, “Milliy muzey fondi” nizomiga muvofiq, haftaning seshanba va juma kunlari 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar ota-onalari bilan muzeylarga bepul kiritiladi. Shuningdek, har yili 2-8-sentyabr kunlari o‘tkaziladigan “Muzeylar haftaligi” davomida aholi uchun muzeylarga bepul kirish imkoniyati yaratilgan⁴⁴.

Bugungi kunda muzeylar faqat eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki ta‘lim-tarbiya, madaniy-ma‘rifiy faoliyat yurituvchi interaktiv maskan sifatida qaralmoqda. Muzey pedagogikasi – bu pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslik fanlari kesishmasida shakllangan ilmiy-amaliy yo‘nalish bo‘lib, bolalarni madaniy meros bilan tanishtirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ularni faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qiladi. Bu tushuncha ilk bor Germaniyada shakllangan⁴⁵, Rossiyada esa B.A.Stolyarov tomonidan ilmiy asoslangan⁴⁶.

Xorijiy muzeylar, xususan, Angliyada, eksponatlarning restavratsiya jarayonini ochiq namoyish qilish, sahnalashtirilgan ko‘rgazmalar, viktorinalar va marketing strategiyalari orqali tashrif buyuruvchilarni faol jalb etmoqda⁴⁷. O‘zbekistondagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi tarixiy shaharlardagi muzeylar ham turistik marshrutlarga kiritilgan bo‘lib, ular ta‘limiy va ma‘naviy tarbiya ishlarida faol ishtirok etmoqda.

⁴² Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музеи, галереи, арт-центры Ташкента. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2017. – С. 20.

⁴³ https://uz.kursiv.media/en/2025-08-28/uzbekistan-begins-construction-of-national-museum-with-design-by-tadao-ando/?utm_source=chatgpt.com

⁴⁴ Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi “Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota-onalariga ochiqqligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 189-son qarori // <https://tabiatmuzey.uz/wp-content/uploads/2024/01/189-%D1%81%D0%BE%D0%BD-11.07.2014.-Davlat-muzeylarining-bolalar-va-ularning-ota-onalariga-ochiqqligini-taminlash-chora-tadbirlari-to%E2%80%98g%E2%80%98risida.pdf>

⁴⁵ Борисовна Е. Становление музейной педагогики в Германии и России. – М., 1999. – С. 17.

⁴⁶ Исмаилова Ж.Х. Замонавий музейшunoslik asoslari. – Тошкент: Турон Замин Зиё, 2016. – 66 б.

⁴⁷ Ismoilova J., Adilov J., Nazarov A., Muxamedova M., Azimbayev M. Muzey sohasini rivojlantirishda xalqaro munosabatlarning o‘rni // Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2018. – B. 94-123; Квебекская декларация: основные принципы новой музеологии. – Museum, 1985. – С. 21.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniyat va ma'naviyat sohalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Muzeylar ommaviy-ma'rifiy markazga aylanish barobarida, xalqaro maydonga ham faol integratsiyalashdi. 1997-yilda O'zbekiston Muzeylar Kengashi tashkil etilib, ICOM (Muzeylar xalqaro kengashi)ga a'zo bo'lish orqali xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yildi⁴⁸. Bu esa muzeylar faoliyatini global mezonlar asosida rivojlantirishga keng imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik yillarida muzeylar tarmog'i kengayib, milliy o'zlikni tiklash va tarixiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi muzeylar tashkil etildi. Masalan, 1997-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Sharq miniatyura san'ati muzeyi⁴⁹ va hududiy o'lkashunoslik muzeylari, jumladan, Andijondagi Bobur yodgorlik muzeyi, o'z hududining tarixiy-madaniy merosini targ'ib qiladi⁵⁰. Shuningdek, Imom al-Buxoriy muzeylari kabi maskanlar tarixiy va ma'naviy merosni chuqur anglashga xizmat qilmoqda. Farg'ona viloyatidagi Uvaysiy uy muzeyi esa o'zbek ayol adabiyoti va sufiylik an'analarini keng targ'ib qiladi⁵¹.

O'zbekiston muzeylari nafaqat tarixiy merosni saqlaydi, balki uni yosh avlodga zamonaviy, interaktiv usullarda yetkazadi⁵². Xususan, Shahrisabzdagi Maqom muzeyi multimedia va jonli ijrolar orqali milliy san'atni yoshlar bilan yaqinlashtiradi. Bu muzeylar faol muloqot maydoniga aylangan, yoshlarni madaniy qadriyatlar bilan tanishtirishda muhim rol o'ynaydi. "Shon-sharaf" muzeyi esa Ikkinchi jahon urushidagi o'zbek xalqining jasoratini virtual real texnologiyalar va interaktiv eksponatlar yordamida namoyish etadi. Bu yoshlarni tarix bilan bevosita tanishtirib, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini oshiradi. Termiz, Sarmishsoy va boshqa muzey-qo'riqxonalar esa an'anaviy madaniy merosni keng geografik hamda arxeologik kontekstda saqlash va targ'ib qilishga qaratilgan. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi esa zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali yoshlar bilan interaktiv ishlash, tarixiy xotirani mustahkamlashda yetakchi markazga aylandi⁵³. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tomonidan 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan "Muzei-ta'lim-oila" loyihasi yoshlarni tarix va madaniyatga jalb etish, ularning bilim va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbusdir⁵⁴. Loyihaning asosiy maqsadi – muzei, ta'lim muassasalari va oilalar o'rtasida uzviy aloqani yo'lga qo'yish, yoshlar ongida milliy qadriyat va tarixiy xotirani shakllantirishdir.

⁴⁸ Nishonova K. Muzei sohasini rivojlantirishda xalqaro munosabatlarning o'rni // Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2018. – B. 127-128.

⁴⁹ <https://kbmsm.uz/uz/about>

⁵⁰ <https://uzbekistan.travel/uz/o/bobur-yodgorlik-bogi-va-uy-muzeyi>

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.02.1996-yildagi "Fayzulla Xo'jayev tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 69-son qarori // <https://anyut.uz/?p=2601>

⁵² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30 maydagi "Sarmishsoy", "Shahrisabz", "Termiz" va "Qo'qon" davlat muzei-qo'riqxonalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida 443-sonli qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-4358328>

⁵³ Исмоилова Ж.Х., Ревес А.М. Ўзбекистон – бағрикенг диёр. Ўзбекистон тарихи давлат музейи экспозицияси материаллари асосида экскурсиялар олиб бориш бўйича услубий тавсияномалар. – Тошкент, 2007. – 43 б.

⁵⁴ Исмаилов А.Ф. Академик лицейларда тарих фанини ўқитишнинг инновацион технологияларини такомиллаштириш. Пед. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 159-160.

Bu kabi tashabbuslarning dolzarbligi, ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekiston muzeylariga tashrif buyurayotgan o‘quvchi va talabalar sonining sezilarli ortganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarimizni muzeylarga bo‘lgan qiziqishini o‘rganish maqsadida ular orasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma “Telegram” ijtimoiy tarmog‘i orqali anonim shaklda o‘tkazilib, unda 867 nafar yoshlar maktab o‘quvchilari, litsey-kollej va oliy ta‘lim muassasalari talabalari hamda yosh mutaxassislar ishtirok etdi⁵⁵.

So‘rovnoma jami 15 ta savoldan iborat bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oldi: olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari yoshlar orasida muzeylarga nisbatan ma‘lum darajada qiziqish mavjudligini, biroq amaliy tashriflar sonining pastligini ko‘rsatdi. Yoshlar ayniqsa tarixiy va badiiy muzeylarga qiziqish bildirgan bo‘lsa-da, muzeylarga tashrif buyurish madaniyati to‘liq shakllanmagan va bu borada axborot yetishmovchiligi mavjud. Respondentlarning ko‘pchiligi muzeylar faoliyati haqida yetarlicha xabardor emasligi, ko‘rgazmalar va boshqa madaniy tadbirlarning jozibadorligi pastligi, shuningdek, xizmatlar sifati va infratuzilma qulayliklarining kamchiliklari ularning muzeylarga bo‘lgan faolligini cheklamoqda.

So‘rovnoma natijalari yosh avlodning madaniy va ma‘naviy tarbiyasida muzeylarning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Yoshlarning zamonaviy axborot texnologiyalari, interaktiv xizmatlar va qulay muhitga bo‘lgan talablarining ortib borayotgani muzey faoliyatini raqamlashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish va ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish vazifalarini qo‘ymoqda.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda muzeylar tarmog‘i sezilarli darajada kengaydi va sifat jihatdan ham yangilandi. Milliy tarix, adabiyot, san‘at va sport sohalariga oid yangi muzeylar tashkil etildi. Bu jarayonda muzeylar yoshlar uchun ma‘rifiy, tarbiyaviy maskanlarga aylandi. Davlat tomonidan qabul qilingan qonunlar va dasturlar muzeylarning huquqiy maqomini mustahkamlab, faoliyatining samaradorligini oshirdi. O‘zbekiston muzeylarining mustaqillik yillaridagi rivoji milliy tarixiy adolatni tiklash, milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **“Yoshlarning ma‘naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda muzeylardan samarali foydalanish yo‘llari”** nomli uchinchi bobida muzeylardagi ko‘rgazma va loyihalarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda ta‘sirchanligi, ta‘lim muassasalari hamda muzeylar o‘rtasidagi hamkorlikning dolzarb muammolari va ularni bartaraf etishga doir taklif etilayotgan yechimlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Yurtimizdagi eng yirik san‘at muzeyi bu O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyi hisoblanadi. Shuningdek, Farg‘ona viloyati san‘at muzeyi, Andijon viloyati san‘at va tarix muzeyi, dunyoda mashhur avangard san‘at to‘plami bilan tanilgan I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoqiston Davlat san‘at muzeyi, Abulqosim Firdavsiy nomidagi muzey (miniatyura va tasviriy san‘atga asoslangan), Sitorai

⁵⁵ So‘rovnoma statistik diagrammalari dissertatsiyaga ilova qilinadi.

Mohi Xosa saroy-muzeyi (tasviriy va amaliy san'at)lari hisoblanadi⁵⁶. Badiiy muzeylardagi ekspozitsiyalar nafaqat asarning tashqi shaklini, balki uning g'oyaviy-simvolik mazmunini ham ochib berishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon estetik tafakkurni chuqurlashtiradi⁵⁷.

O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanayotgan Kamoliddin Behzodga mansub miniatyura asari (Temuriylar davri miniatyura san'ati namunasi) bo'lib, asarga ilmiy-badiiy ta'rif beradigan bo'lsak: Kamoliddin Behzod – Sharq miniatyura san'atining eng yirik namoyandaligidan biri bo'lib, uning asarlari kompozitsiyasi mukammalligi, ranglar uyg'unligi va psixologik ifodaliligi bilan ajralib turadi⁵⁸.

Mazkur miniatyurada an'anaviy Sharq rassomchiligiga xos ravishda tekis fazo, shartli perspektiva va dekorativ rang yechimi qo'llanilgan. Kompozitsiya markazida inson obrazi joylashtirilgan bo'lib, u atrof-muhit bilan uzviy bog'langan holda tasvirlangan. Ranglar ramziy ma'noga ega: ko'k va yashil tonlar tinchlik hamda ma'naviy poklikni, qizil va oltin ranglar esa hokimiyat hamda ulug'vorlikni ifodalaydi.

Asarda harakat va holatlar nafis chiziqlar orqali berilgan, bu esa Behzod uslubiga xos dinamik ifoda vositasi hisoblanadi. Miniatyura nafaqat badiiy, balki tarixiy-etnografik asar sifatida ham qimmatlidir, chunki u davr kiyimlari, me'moriy muhit va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi⁵⁹.

Yoshlarni muzeylarga jalb etish jarayonida ularni yosh toifalariga ko'ra guruhlash masalasi pedagogika, muzeyshunoslik va yosh psixologiyasi nuqtayi nazaridan ilmiy asoslangan yondashuv hisoblanadi. Chunki har bir yosh bosqichi o'ziga xos rivojlanish darajasi, qiziqish doirasi va idrok qilish uslubi bilan farq qiladi. Jumladan, birinchidan, rivojlanish psixologiyasiga ko'ra bolalar va yoshlarning tafakkuri bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarda ko'proq vizual va emotsional qabul qilish ustun bo'lsa, o'smirlik davrida tahliliy fikrlash shakllana boshlaydi, yoshlar esa tarixiy-ijtimoiy jarayonlarni tanqidiy va tizimli baholashga qodir bo'ladi.

Ikkinchidan, muzey pedagogikasi nuqtayi nazaridan, yosh toifalariga ko'ra guruhlash ta'limiy samaradorlikni oshiradi. Interaktiv o'yinlar, multimedia vositalari, muammoli savollar, mustaqil tahlil topshiriqlari qo'llanilishi mumkin. Bu esa muzeyni faqat tomosha joyi emas, balki faol bilim olish muhitiga aylantiradi.

Uchinchidan, yoshlarning ijtimoiy tajribasi va qadriyatlarga munosabati ham yoshga bog'liq. Yosh toifalarini hisobga olmasdan tashkil etilgan muzey tashriflari

⁵⁶ Ўзбекистон маданият мероси. И.В.Савицкий номидаги Қорақалпоғистон давлат санъат музейи тўплами. – Тошкент: Uzbekistan today, Zamon press info, 2017. – Б. 22; Бабаназарова М. Игорь Савицкий (художник, собиратель, основатель музея). – Нукус: Silk Road Publishing House, 2017. – С. 19; Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 2003. – № 1. – Б. 26.

⁵⁷ Akmal Nur. San'at va zamon: tajriba va mulohazalar. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – Б. 12.

⁵⁸ Сулаймонова Ф. Миниатюра Востока. Наше наследие. – М., 1991. – С. 32; Ismoilova E. Behzod ijodining uslubi // San'at. 2-son. – Toshkent, 2000. – Б. 5; Kamaliddin Behzod master of Persian painting. – London, New York, 1996. – 13 p.

⁵⁹ Асқарова З.А. Камолитдин Бехзод асарларида аёллар образи талқини / “Марказий Осиё китобат санъати ва миниатюраси” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Камолитдин Бехзод номидаги Шарқ миниатюра санъати музейи. – Тошкент, 2018. 21.11. – Б. 164-166.

ayrim ishtirokchilarda zerikish yoki qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Yoshlarni muzeylarga jalb etishda ularni yosh toifalari asosida guruhlarga ajratish – ilmiy, pedagogik va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lib, muzey faoliyatining ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan interaktiv loyihalar va ko‘rgazmalar soni ortib bormoqda. Xalqaro tajribalar – xususan, Londonning “British Museum”dagi “Young Explorers” dasturi kabi loyihalar bilan uyg‘unlashib bormoqda⁶⁰. Bugungi kunda dunyoning yetakchi muzeylari – Fransiya, AQSh, Germaniya, Koreya, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda - yosh avlodni san’at hamda fan bilan tanishtirish, ularni mustaqil fikrlovchi, ijodiy shaxs sifatida tarbiyalashga katta e’tibor qaratmoqda⁶¹.

Masalan, Fransiya’dagi Luvr muzeyi “Louvre for Kids” dasturi orqali bolalar uchun interfaol o‘yinlar va virtual ekskursiyalar tashkil etadi⁶². AQShdagi Smithsonian instituti esa “Hands-On Learning” loyihasi orqali bolalarni fan va madaniyatga amaliy usullar bilan jalb qiladi.

Germaniyaning “Deutsches Museum” “Kinderreich” loyihasi bilan bolalarda texnik tafakkur va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Koreya, Yangi Zelandiya, Niderlandiya va Yaponiya muzeylari esa 3D texnologiyalar, sensorli ekranlar, QR-kodli ilovalar va ijodiy laboratoriyalar orqali bolalarga zamonaviy ta’limiy muhit yaratmoqda⁶³.

Shuningdek, yosh guruhlarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sodda, tasviriy, hikoyaviy va amaliy yondashuvlar qo‘llanilmoqda. 7 yoshgacha bo‘lganlar uchun soddalashtirilgan vizual materiallar, 7-12 yoshdagilar uchun esa sensor va abstrakt faoliyatlar uyg‘unligi tavsiya etiladi⁶⁴.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda muzeylar faoliyatini raqamlashtirish va uni ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston davlat san’at muzeyi tomonidan yaratilgan virtual tur platformasi orqali yoshlar 360 formatda eksponatlarni ko‘rish, estetik tushunchalarni amaliy o‘rganish imkoniga ega bo‘ldi⁶⁵. Shuningdek, 2021-yilda YuNESKO bilan hamkorlikda ishga tushirilgan “The Virtual Museum of Uzbekistan” loyihasi madaniy merosni keng auditoriyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda⁶⁶.

Ilmiy tadqiqotlar ham virtual texnologiyalar yoshlarning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda an’anaviy ekskursiyalar kabi samarali vosita ekanligini tasdiqlamoqda. Virtual muhitda tashkil etilgan interaktiv darslar, 3D ekspozitsiyalar, VR/AR texnologiyalar – bularning barchasi estetik tarbiya, san’atni tushunish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

⁶⁰ The British Museum: Young Explorers Programme // <https://www.britishmuseum.org> (Murojaat sanasi. 11.11.2024).

⁶¹ Панкратова Т.Н., Чумалова Т.В. Занятия и сценарии с элементами музейной педагогики для младших школьников: Первые шаги в мире культуры. – М., 2002. – С. 8.

⁶² Louvre for Kids // <https://www.louvre.fr/en/young-audience> (Murojaat sanasi. 11.11.2024).

⁶³ Deutsches Museum – Kinderreich // <https://www.deutsches-museum.de/en> (Murojaat sanasi. 11.11.2024).

⁶⁴ Бонами З.А. Музей – образование – дети. Музейная педагогика за рубежом. – М., 1997. – С. 13.

⁶⁵ <https://museumfinearts.uz/virtual-tour>

⁶⁶ <https://virtualmuseum.uz>

“Muzeylar haftaligi” kabi tashabbuslar, yoshlar uchun bepul kirish imkoniyati, madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi – bularning barchasi yosh avlodda muzey madaniyatini shakllantirish va milliy merosga bo’lgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda⁶⁷.

Respublika bo‘ylab amalga oshirilgan ko‘plab loyihalar, jumladan, “Meros”, “Temuriylar davri san’ati”, “Zamonaviy san’at va yoshlar”, “Muzey darslari”, “Yoshlar nigohida tarix” kabi tashabbuslar yoshlarning tarixiy xotira, vatanparvarlik, mustaqil fikrlash, kasb tanlash va estetik didini rivojlantirishga xizmat qilmoqda⁶⁸. Ayniqsa, AR/VR texnologiyalari, interfaol metodlar va teatr elementlarining tatbiqi ta’limiy jarayonni jonlantirib, yoshlarni san’at va tarixga yanada yaqinlashtirmoqda.

Muzeylar yoshlarning tarixiy xotirasi, estetik didi va milliy o‘zligini shakllantirishda bevosita ta’sirga ega bo‘lib, ular bilan ta’lim tizimi o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur⁶⁹. Tadqiqotchilar, jumladan, Xans Kristof Bekerning ta’kidlashicha, muzeylar yoshlarning mustaqil fikrlash, tarixiy xotira va estetik didini shakllantirishda kuchli ta’sirga ega⁷⁰.

O‘zbekiston va xalqaro tajriba asosida tayyorlanayotgan mazkur dissertatsiya muzey-ta’lim hamkorligining amaliy shakllarini o‘rganib, mavjud muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bois, muzeyda tashkil etilgan interaktiv darslar va ekspozitsiyalar yoshlarni faollikka undaydi, bilimlarni mustahkam egallash va chuqur tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi⁷¹.

Ushbu tadqiqotda muzeylar va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqur o‘rganish uchun tarixiy-tahliliy, qiyosiy, interfaol va keys-stadi metodlaridan foydalanildi. Bu yondashuvlar orqali muzeylarning ta’lim jarayonidagi pedagogik, estetik va ma’naviy salohiyati tahlil qilinib, ularni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llari izlandi. Shunga qaramay, “Moziyga sayohat” kabi loyihalar muzey-ta’lim integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotda bu kabi tashabbuslarning ilmiy tahlili asosida zamonaviy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan⁷². “Madaniy meros oyligi” doirasida O‘zbekistonda muzeylar tomonidan ochiq darslar, ko‘rgazmalar, kvestlar va ijodiy uchrashuvlar o‘tkazilib, ayniqsa ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan ekskursiyalar yoshlarning estetik dunyoqarashini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi⁷³.

Xalqaro tajribada, jumladan Germaniya, Fransiya, Yaponiya va AQShda muzeylar ta’limning faol subyekti sifatida qaraladi. Fransiyada esa “san’at orqali

⁶⁷ Ишанова М. Государственный музей искусств Каракалпакистан имени И.В.Савицкого. – Infolib, 2016. – № 3. – С. 44-45.

⁶⁸ O‘zbekiston davlat san’at muzeyi 2022-yil hisoboti // <http://amurtemurmuseum.uz>. (Murojaat sanasi. 12.04.2025) // Respublika bolalar kutubxonasi 2023-yil hisoboti; Yoshlar va zamonaviy san’at: imkoniyatlar va istiqbollari // San’at va hayot, 2022. – B. 3 // <https://samarkandmuseum.uz>. (Murojaat sanasi. 12.04.2025); O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi 2023-yil hisoboti; Qoraqalpog‘iston respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi 2023-yil hisoboti // O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2023-yil hisoboti.

⁶⁹ Назарова Г.Х. Музей ва эстетик тарбия: назарий ёндашувлар. – Тошкент: Ма’naviyat, 2020. – Б. 45-49.

⁷⁰ Becker, H.C. Museumspädagogik heute. – Berlin: Museum-Verlag, 2012. – P. 146.

⁷¹ Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Педагогика, 1984. – 98 с.

⁷² “O‘zbekiston davlat san’at muzeyi faoliyati”. – Madaniyat va San’at, 2022. – № 3.

⁷³ Becker H.C. Museumspädagogik heute. – Berlin: Museum-Verlag, 2012. – 146 p.

ta'lim" tamoyili asosida muzeylar umumta'lim strategiyasiga integratsiyalashgan. Louvre muzeyining "Classes au Louvre" dasturi doirasida o'quvchilar muntazam muzey faoliyatida ishtirok etib, estetik va madaniy tafakkurini boyitmoqda⁷⁴.

Xalqaro tajribaga ko'ra, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va AQShda muzeylar nafaqat madaniy obyekt, balki ta'limning ajralmas qismi sifatida faol ishlaydi⁷⁵. Shu tarzda muzeylar yoshlarning madaniy va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion, interfaol va samarali ta'lim muhitiga aylanishi mumkin. Quyida muzeylarga maktab, litsey, kollej hamda oliy ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan o'quvchilar tashrifi statistikasini keltiramiz:

Temuriylar tarixi davlat muzeyi – 2022-2025-yillarda jami 186 646 nafar o'quvchi talabalar;

Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi – 2022-2025-yillarda jami 132 550 nafar o'quvchi talabalar;

"Termiz" davlat muzey-qo'riqxonasi – 2022-2025-yillarda jami 52 464 nafar o'quvchi talabalar;

"Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi – 2022-2025-yillarda jami 140 876 nafar o'quvchi talabalar⁷⁶.

Umuman olganda, keltirilgan raqamlar O'zbekistonda yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlash, ma'naviy ongini yuksaltirish va madaniy merosga hurmat ruhini shakllantirishda muzeylarning o'rni tobora ortib borayotganini ilmiy asosda ko'rsatib bermoqda. Muzeyshunoslik sohasidagi muammolar ham yo'q emas albatta. Mavjud holatdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Zamonaviy, interaktiv yondashuvlarning yetishmasligi; Texnologik yangiliklarning (VR, AR, multimedia vositalari) faol joriy etilmaganligi; Infratuzilma va texnologik yangilanishning sustligi;

Ekspонатlarni yangilash va tadbirlarni diversifikatsiyalashdagi qiyinchiliklar.

Shuningdek, badiiy muzeylarda quyidagi muammolar mavjud: maxsus ekskursiya dasturlarining yetishmasligi, maktablar bilan integratsiyaning sustligi, tematik ko'rgazmalar va interaktiv maydonchalarning kamligi;

qishloq maktablarining muzeylarga borishidagi tashkiliy-infratuzilmaviy cheklovlar, kadrlar malakasining pastligi, moliyaviy yetishmovchilik, muzey-ta'lim integratsiyasi bo'yicha tizimli yondashuvning yo'qligi, shuningdek, AR/VR, virtual ekskursiya va audiogidlar kabi texnologiyalarning kamligi kuzatilgan bo'lsa, ularni bartaraf etish uchun "muzey pedagogikasi" bo'yicha kadrlar tayyorlash, metodik resurslar yaratish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, sayyor muzeylar va onlayn platformalarni rivojlantirish, maktab muzeylarini tashkil etish hamda xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish kabi tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, muzeylar faoliyatini takomillashtirish va uning ijtimoiy masalalardagi samaradorligini oshirishda xorijiy tajriba hamda xalqaro hamkorlik bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

⁷⁴ Musée du Louvre. "Classes au Louvre". Rapport pédagogique. – Paris, 2020. URL: www.louvre.fr

⁷⁵ Musée du Louvre. "Classes au Louvre". Rapport pédagogique. – Paris, 2020. URL: www.louvre.fr; Yamamoto, K. Education and Museum Collaboration in Japan. – Tokyo: National Museum Press, 2018.

⁷⁶ Statistik ma'lumotlar ushbu muzeylarining yillik hisobotlarini umumlashtirish orqali shakllantirilgan.

XULOSA

Yoshlarni ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda muzeylarning ahamiyatiga oid tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy-estetik tarbiyasi dolzarb masalaga aylandi. Shu jarayonda muzeylar yosh avlodni tarix, madaniyat va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda muhim tarbiyaviy institut sifatida shakllanmoqda. O'zbekistonda mustaqillikdan keyin muzeylar ta'limiy va tarbiyaviy markazlarga aylantirildi. Ularning texnik bazasi mustahkamlanib, interaktiv xizmatlar va raqamlashtirish joriy etildi. O'zbekistonda san'at, tarix va madaniy merosga oid ekspozitsiyalar orqali yoshlar o'z o'tmishi, qadriyatlari va ajdodlari merosi bilan tanishmoqda. Muzeylardagi interaktiv ekskursiyalar, tematik loyihalar, zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ko'rgazmalar estetik tarbiya samaradorligini oshiradi.

2. Muzeylar yoshlarning ma'naviy-estetik dunyoqarashini takomillashtirishda strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy institut hisoblanadi. Yuqorida bayon etilgan rivojlanish tamoyillari muzey faoliyatini tizimli, ilmiy asoslangan va zamonaviy talablarga mos holda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan, estetik tafakkuri yuksak, ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishning mustahkam poydevorini yaratadi.

3. Zamonaviy davrda ta'lim va madaniyat muassasalari o'rtasidagi hamkorlik yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, muzeylar bilan o'quv yurtlari o'rtasidagi integratsiyalashgan faoliyat yoshlarning tarixiy bilimini, estetik didini va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarning muzeyga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni bevosita tarix va madaniyatga bog'laydi. Imkoniyati cheklangan yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar esa ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlamoqda.

4. Germaniya, AQSh, Rossiya kabi davlatlar tajribasi asosida ta'lim va muzey pedagogikasi integratsiyasi rivojlanmoqda. O'zbekistonda ham bepul tashriflar, haftaliklar, interaktiv dasturlar orqali muzeylar yoshlar ongini shakllantirishda samarali vositaga aylandi. Shu bois muzeylar hozirgi kunda nafaqat ma'rifiy, balki tarbiyaviy va innovatsion faoliyat yurituvchi zamonaviy ijtimoiy institut sifatida e'tirof etilmoqda.

5. O'zbekiston mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati tubdan isloh qilinib, ular milliy o'zlikni shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy institutga aylantirildi. Raqamlashtirish, interaktiv texnologiyalar va vizual ekspozitsiyalar orqali yoshlarning madaniy ongiga chuqur ta'sir ko'rsatilmoqda.

6. O'zbekistonda muzeylar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik tobora kuchaymoqda. "Yosh gidlar", "Yosh san'atshunoslar" kabi tashabbuslar, maktab-muzey integratsiyasi asosida tashkil etilayotgan tadbirlar yoshlarning tarixiy va estetik ongini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq bu jarayon hali ham to'liq tizimlashtirilmagan, ko'proq tashabbus asosida olib borilmoqda. Dissertatsiya tahlillari shuni ko'rsatadiki, mazkur integratsiya milliy qadriyatlarni chuqur anglash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va shaxsiy kamolotga erishishda katta salohiyatga ega. Ta'lim jarayonida eksperimental lyorningning rolga kirish

orqali o'rganish shakllarini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu usul talabalarning kasbiy, tadqiqotchilik va kommunikativ kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

7. Zamonaviy muzeylar faqat eksponatlarni namoyish etuvchi muassasalar emas, balki ijtimoiy, ta'limiy va madaniy integratsiyani ta'minlovchi ochiq makon sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ayniqsa, autizm spektri buzilishlari, DSP va boshqa rivojlanishida cheklovi mavjud bolalar uchun muzey muhiti ularning ijtimoiylashuvi, bilish faoliyati va emotsional rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Muzeylarda autizm, DSP va boshqa rivojlanishida cheklovi mavjud bolalar uchun inklyuziv muhit yaratish – bu faqat infratuzilmaviy masala emas, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy ahamiyatga ega kompleks jarayondir. Ilmiy asoslangan takliflarni amalga oshirish orqali muzeylar barcha bolalar uchun ochiq va teng imkoniyatli madaniy makonga aylanadi.

Olib borilgan tadqiqot xulosalari asosida quyidagi **taklif** va **tavsiyalar** bildirildi:

- pedagog va muzey xodimlarining malakasini oshirish bilan muzey pedagogikasi bo'yicha doimiy o'quv kurslari hamda seminarlar tashkil etish, pedagoglarning muzey uslublari bilan tanishishi va zamonaviy metodikalarni qo'llashini ta'minlash hamda yoshlarimizni muzeylarga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida “Experimental learning” (rolga kirish orqali o'rganish) tizimini yo'lga qo'yish;

- muzey eksponatlari asosida geymifikatsiya o'yinlarini joriy etish muzeylarni an'anaviy namoyish makonidan interaktiv ta'lim platformasiga aylantirish;

- muzey xodimlari uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus treninglar o'tish va autizm hamda DSP bilan bog'liq psixologik yondashuvlarni o'rgatish;

- Offline mobil muzeylarni joriy etish: internet tezligi past yoki barqaror emas joylarda; zamonaviy VR/onlayn platforma imkoniyatlari cheklangan xududlarda hamda o'quvchilarning muzeylarga tashrif imkoniyati kam chegaraoldi hududlarda tavsiya etiladi;

- muzey faoliyatida **sun'iy intellekt** tizimlarini joriy etish, bunda interaktiv savol-javob tizimini yo'lga qo'yish, yoshlarning mustaqil fikrlashini tahlil qilish qobiliyatini hamda ma'naviy ongini rivojlantirish xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 05/2025.27.12. Tar.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ МУЗЕЕ ИСТОРИИ
УЗБЕКИСТАНА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ХУДОЖЕСТВА И ДИЗАЙНА
ИМЕНИ КАМОЛИДДИНА БЕХЗОДА**

ШОДМОНОВ ХАКИМДЖОН ХАМДАМОВИЧ

**ЗНАЧЕНИЕ МУЗЕЕВ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО-
ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЁЖИ**

17.00.06 – Музееведение. Консервация, реставрация и сохранение
историко-культурных объектов

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD)
по историческим наукам

ТАШКЕНТ – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/Tar2093.

Диссертация выполнена в Национальном институте художества и дизайна имени Камолиддина Бехзода.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (<https://history-museum.uz>) и на веб-странице Информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Мирзорахимов Аббосджон Шодмонович
кандидат исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Исмаилов Алишер Файзиевич
доктор исторических наук (DSc), профессор

Хакимов Акбар Абдуллаевич
доктор искусствоведческих наук, академик

Ведущая организация:

**Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится «12» 06 2026 года в 10.00 часов на заседании Научного совета PhD. 05/2025.27.12. Tar.07.01 по присуждению ученых степеней при при Государственном музее истории Узбекистана. (Адрес: 100029, город Ташкент, улица Шарафа Рашидова, 3. Тел.: (+99871) 239-10-83; факс: (+99871) 239-10-83, e-mail: uzb.historymuseum@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Государственного музея истории Узбекистана (Зарегистрирована за № ____). Адрес: 100029, город Ташкент, улица Шарафа Рашидова, 3.

Автореферат диссертации разослан «03» 06 2026 года.
(протокол реестра № 21 от «03» 06 2026 года).



Ж.Х. Исмаилова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
исторических наук, профессор.

Т.Х. Норкobilов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по историческим наукам
(PhD), старший научный сотрудник.

Б.В. Хасанов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор исторических
наук, профессор.

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях стремительно протекающих процессов глобализации и информатизации вопрос совершенствования духовно-эстетического мировоззрения молодежи приобретает особую актуальность. Особенно важным фактором развития общества является формирование у подрастающего поколения высокой духовности посредством осмысления национального культурного наследия, исторических ценностей и эстетического мышления. Музеи, как важные культурно-просветительские учреждения, воплощающие историческую память народа, его духовное наследие и эстетические ценности, обладают значительным воспитательным потенциалом в развитии духовно-эстетического мировоззрения молодежи. Через музейные экспозиции молодёжь непосредственно знакомится с образцами национальной и мировой культуры, формируя историческое мышление, эстетическое восприятие и ответственное отношение к культурному наследию. С этой точки зрения научное изучение роли музеев в совершенствовании духовно-эстетического мировоззрения молодежи, педагогический анализ их воспитательного потенциала, а также разработка механизмов их эффективного использования определяют актуальность и необходимость данного исследования.

В ведущих научных центрах мира проводятся исследования, посвящённые вопросам освещения роли и значения музеев в формировании мировоззрения молодёжи. В данных исследованиях изучаются такие вопросы, как музейная педагогика, популяризация культурного наследия, а также значение использования цифровых технологий при формировании музеев и обогащении их экспозиций. В этом аспекте результаты, полученные в исследованиях, дают возможность сделать соответствующие выводы о значении музеев в совершенствовании эстетического мировоззрения молодёжи.

В последние годы в нашей стране реализуются широкомасштабные меры, направленные на рациональное использование потенциала музеев в воспитании подрастающего поколения как духовно и эстетически зрелых личностей, развитие музейной педагогики, усиление культурно-просветительской деятельности, а также на приближение истории и культуры к молодёжи. В нашей стране в Стратегии «Узбекистан – 2030», рассчитанной до 2030 года, в таких приоритетных направлениях, как «Создание достойных условий для реализации потенциала каждого человека» и «Обеспечение благосостояния населения посредством устойчивого экономического роста», определены задачи, направленные именно на обогащение знаний, мышления и мировоззрения молодёжи¹. В рамках данного стратегического подхода особую актуальность приобретают также задачи по сохранению, изучению и популяризации культурного наследия, формированию у молодёжи уважения к собственной истории, а также повышению национальной гордости и эстетического вкуса.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

Данная исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-177 «О музеях» от 12 сентября 2008 года², Распоряжении Президента Республики Узбекистан №Р-5024 «О мерах по дальнейшей реализации стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития республики Узбекистан в 2017-2021 годах» от 15 августа 2017 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №-975 «Об утверждении программы мер по совершенствованию деятельности и комплексному укреплению материально-технической базы государственных музеев на 2017-2027 годы» от 11 декабря 2017 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-3920 «О мерах по инновационному развитию сферы культуры и искусства в республике Узбекистан от 26 августа 2018 года, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №1019 «Об утверждении программы совершенствования деятельности музеев в Республики Узбекистан на 2020-2021 годы» от 19 декабря 2019 года, Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6000 «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества» от 26 мая 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-261 «О мерах по развитию сферы услуг в музеях» от 27 мая 2022 года и других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Анализируя периодические издания и научную литературу по теме научного исследования, можно разделить их на две группы для изучения.

В первую группу входят исследования в области музееведения, проведённые в Узбекистане в годы независимости³, материалы периодической печати, а также научные работы зарубежных учёных по музейному делу. В частности, в работах Ж.Х. Исмаиловой, Д.Т. Курязовой, Р.В. Альмеева, Д.А. Курбоновой, М.С. Мухамедовой, Г.Р. Орифжоновой проанализированы этапы развития музеев Узбекистана, процессы обновления после обретения независимости, социально-культурное и научное значение музеев, а также их гармонизация с туризмом и инновационными технологиями⁴.

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.09.2008 yildagi O‘RQ-177-son. // <https://lex.uz/docs/-1391728>

³ Курбонова Д. Хориж музейларида сақланаётган Темурийлар даврига оид тарихий ва маданий ёдгорликлар: Тарих фан. ном. дис. ... автореферати. – Тошкент, 2009. – 30 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида): Тарих фан. ном. дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – 30 б.; Альмеев Р. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991–2000 гг.): Автореф. на соиск. уч. ст. докт. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 50 с.

⁴ Курязова Д. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (тарих ва ўлкашунослик музейлари фаолияти мисолида): т.ф.н. дисс... автореферати. – Тошкент, 2009.; Курязова Д.Т. Музей иши асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 180 б.; Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные

